

## **INGLIZ TILI TALAFFUZINING HUDUDIY VARIANTLARI VA ULARNING FONETIK XUSUSIYATLARI**

**Sobirova O'g'iloy Abdumuxtor qizi**

*Farg'ona davlat universiteti, Lingvistika (ingliz tili) 2-bosqich magistranti*

**Yusupova Sabohat A'zamjonovna**

*Farg'ona Davlat Universiteti, ingliz tili kafedrasи kata o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqola ingliz tilidagi so'zlarining fonetik xususiyatlari hamda ularning talaffuz variantlarini o'r ganishga bag'ishlanadi. Bu masalani yoritishdan avval ingliz tili fonetik tizimi xususiyatlari haqida fikr yuritish maqsadga muvofiq bo'ladi.

**Kalit so'zlar:** *talaffuz, tovush, fonetik variant, talaffuz variant, transkriptsiya, variforma, segment, variyatsiya*.

Ingliz tili Buyuk Britaniya hududidan chiqib hozirgi AQSh, Kanada, Astraliya, Yangi Zelandiyaga, Janubiy Afrika va boshqa ko'pgina hududlarga tarqalgan. Hozirgi kunda ingliz tili 54 davlatning rasmiy tili hisoblanib, sayèramizda yashaётган 7 mlrd. aholining 380 - 400 mln. Ushbu tildan ona tili va 1.4 mlrd.ga yaqin aholi undan ikkinchi til sifatida foydalanadi. Adabiy ingliz tilining farqlari haqida gapirilganda, avvalo eng asosiysi Britancha va Amerikancha ingliz tili haqida so'z yuritiladi. Chunki ingliz tilining asosiy farqli jihatlari ushbu ikki tilda namoён bo'ladi. Ammo, dastlab hududiy variantlarning leksik farqlari haqida umumiy ma'lumot berib o'tish zarur. Bugungi kunimizda Britisizm, Amerikanizm, Avstraliyanizm, Kanadanizm kabi hududiy xususiyatlarga bo'lingan shakllar va atamalarni uchratamiz. Ingliz tilidagi hududiy farqlarni tilshunos va filologlar bir tushuncha uchun turli atamalar turli variantlarda turlicha uchrashi bilan izohlashadi. Masalan: *government-adminstration* bu ikki so'zning sinonimik juftlik sifatida bir ma'noning ikki ko'rinishi sifatida qabul qilingan. Ammo, biri amerikancha ingliz tilida, ikkinchisi britancha ingliz tilida keng tarqalgan so'z ekanligini unutmaslik kerak.

Har qanday tilda bo'lgani singari, ingliz tilida ham talaffuzning ko'plab turlari mavjud. Britaniya orollaridagi deyarli har bir aholi punktining talaffuzi uni boshqa aholi punktlarining talaffuzidan ajratib turadigan o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bundan tashqari, til va talafuz ijtimoiy ta'sirga ega. U sinfiy farqlarni, ta'lim va tarbiyani aks yettiradi. Ijtimoiy jihatdan cheklangan odamlar tomonidan so'zlashadigan va faqat ma'lum joylarda qo'llaniladigan turlar dialekt deb ataladi. Shuning uchun mahalliy shevalar va ijtimoiy dialektlar mavjud. Bu turlarning barchasi ko'plab umumiyliliklarga ega. Mazkur tillardan biri ingliz tili hisoblanadi. [5, 168]

Demak, ingliz tilining turli hududlarda rivojlangan va qo'llanilaётган variantlar o'zaro bir birini to'ldirar ekan. Bu kabi taxlillar uchun ingliz tilining ikki asosiy hududiy varianti

britancha ingliz tili va amerikancha ingliz tilini olgan ma'qul. Chunki bu ikki variant standart ingliz tilining asl o'zagi va manbai hisoblanadi. Dialektlarning talaffuz, lug'at va grammatik tuzilishida o'ziga xos xususiyatlari bor. Ommaviy axborot vositalari (radio, televidenie, kino) tufayli aholining harakatchanligi kuchayishi, aholining shaharlarda to'planishi va shu kabi omillar ta'sirida dialektal farqlar kamaymoqda. RP qisqartmasi (qabul qilingan talaffuz) an'anaviy ravishda Londonda va Angliyaning janubi-sharqida yashovchi odamlarning va shu tarzda gapiradigan boshqa odamlarning standart talaffuz meyorlarini anglatadi.

Amerikancha va Britancha ingliz tili farqlarini zamonlarni ishlatilishida, so'zlar talaffuzida, èzilishida, predloglarni qo'llashda, shartli belgilarda, tinish belgilarini ishlatishda va yana bir necha holatlarda ko'rish mumkin. Yosh bola biror so'zni ingliz tilidagi talaffuz qoidalarini o'rgatuvchiga taqlid qilgan holatda èdlaydi va qaytarishga harakat qiladi. Chunki til faqat o'rganiladigan jaraèn emas, balki u egallanadi. Chunki hech kim ona qornidan biror tilni bilib tug'ilmaydi, balki atrof muhit ta'sirida, eshitgan tili bilan ongi ochilib, tili rivojlanadi. Shuning uchu ham til o'rganishning eng dastlabki usullari bu eshitib, takrorlash va kichik kichik nutq birlklari dialoglar bilan muloqotga kirishishdir. Til o'rganishda muhit eng asosy narsa, masalan, ota onasi uyda rus tilida so'zlashuvchi oila bolalari rus tilini o'zlashtiradi, (hech qanday grammatika qoidalarisiz). Shunday ekan ingliz tilini o'rgatishda ham shunday muhitni yaratish (hech bo'limganda faqat darslarda) o'rgatuvchidan talab etiladigan eng muhim narsa. [2, 78]

Ingliz tilini til sifatida o'rganar ekanmiz, unda mavjud bo'lgan shevaga xos so'zlar, lahchalar xilma xilligiga guvoh bo'lamiz. Shevaga xos so'zlar aynan ma'lum bir hududud yoki mintaqqa kishilarigagina tushunarli va tanish bo'lgan so'zlar bo'lib, ular til rivoji va lug'at boyligining oshishida bevosita xizmat qiladi. Shuningdek, shevaga xos so'zlar adabiy til qoidalaridan yiroq faqatgina so'zlashuv uslubida ishlatilib, tilning adabiy normalariga bo'y sunmaydi. Ular standart ingliz tilidan grammatik, talaffuz, va lug'at tarkibi bilan farqlanadi. Aslida shevaga xos so'zlar asosiy 3 qismga: hududiy shevaga xos so'zlar, klassik ya'ni faqat aholining yuqori yoshdagi eski avlod vakillari ishlatuvchi shevaga oid so'zlar va adabiyotda ham ma'no nozikliklari uchun ishlatiluvchi shevaga doir so'zlarga bo'linadi. [7, 9]

Dialektlardan tashqari ingliz tilidagi turli aksent ko'rinishlari ham mavjuddir. Bu ham tilning turli variantlarida turlicha. Aksent tildagi tallafuz qoidalarini turlichaligi bilan izohlanadi. Dialektda qaysidir ma'noda grammatik qoidalar mavjud bo'lib, mahalliy lug'atni ham shakllantirgan bo'ladi. Lekin standart ingliz tilida ammo o'zining mahalliy aksenti bilan gap gapirish mumkin. Shu jihatdan aksentni bu tildagi tabiiy, to'xtatib bo'lmas, ammo o'zgartirsa rivojlantirsa bo'ladigan jaraendir. Faktlarga ko'ra, Standart ingliz tilida so'zlashuvchi aholining 3 èki 5 foizigina mahalliy aksentlarsiz gapiradi. Bu esa aksentsiz standart ingliz tili bo'lishi mumkin emas degan fikrga yaqqol dalildir. Aksentsiz

standart ingliz tilida gaplashuvchilar aksentlari ingliz tilisini ba'zida BBC ingliz tili aksenti deb ham atashadi.

Yuqoridagi taxlillar va solishtirmalar shuni ko'rsatadiki, ingliz tilining hamma variantlari asosida Britancha ingliz tili bo'lib, uni biroz o'zgarishlar bilan bo'lsada turlangan jihatlarining qolgan til variantlarida ko'rishimiz mumkin. Lekin standart ingliz tili qonun qoidalari uchun ham Britancha ingliz tilining asos qilib olinganligi bunga sabab bo'lishi mumkin. Chunki hamma til o'rganuvchi ham o'rgatuvchi ham tilda mukammallikka erishishni va o'sha tilni to'liq tushunishni xohlaydi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Yusupova, S. (2022). ИЖТИМОЙ ГУРУХЛАРДА ҲУРМАТ КАТЕГОРИЯСИ ИФОДАЛАШI. *Science and innovation*, 1(B5), 350-352.
2. A'zamjonovna, Y. S. (2022). INGLIZ TILIDA EMOTSIYALARING GRAMMATIK IFODALANISHI. *PEDAGOGS* jurnali, 20(2), 65-68.
3. To'lanboyeva, G., Yusupova, S., & Mirzayeva, D. (2022, November). CULTURE AND LINGUISTICS. RELATIONSHIPS. In INTERNATIONAL CONFERENCE: PROBLEMS AND SCIENTIFIC SOLUTIONS. (Vol. 1, No. 6, pp. 82-88).
4. M. Axunova, & S. Yusupova (2022). SON KATEGORIYASINING QO'LLANILISHI VA UNING INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA QIYOSLANISHI. *Science and innovation*, 1 (B7), 736-739.
5. G. Tolanboyeva, & S. Yusupova (2022). LINGVOKULTUROLOGIYA O'RGANILISH TARIXI. *Science and innovation*, 1 (B6), 540-543.
6. Юсупова, С. А. (2022, September). ЎЗБЕК ТИЛИ ТИПОЛОГИЯСИДА ҲУРМАТ КАТЕГОРИЯСИ. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE "THE TIME OF SCIENTIFIC PROGRESS" (Vol. 1, No. 1, pp. 10-14).
7. Юсупова, С. А. (2022, September). ЎЗБЕК ТИЛИДА ҲУРМАТ ИФОДАЛАШНИНГ ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE " INNOVATIVE TRENDS IN SCIENCE, PRACTICE AND EDUCATION" (Vol. 1, No. 1, pp. 10-14).
8. Sabohatxon, Y., Zilolaxon, T. Y., & Shaxlo, Y. L. (2022). EXPRESSION OF METAPHOR IN DIFFERENT SYSTEM LANGUAGES. *RESEARCH AND EDUCATION*, 1(2), 209-212.
9. A'zamjonovna, Y. S. (2022). GARRI POTTER HIKOYASIDA ME'MORCHILIK. O'ZBEKİSTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMİY TADQIQOTLAR JURNALI, 1(12), 1103-1104.
10. Maftuna Erkin qizi, J. ., Kamilla Andreyevna, P. ., Sabohat A'zamjonovna, Y., & Farhod Faxriddinovich, U. . (2022). MEDIA DISCOURSE FEATURES. *Scientific Impulse*, 1(3), 561-565.

11. Odilova Mavluda To'Lqinjon Qizi, & Yusupova Sabohatxon A'Zamjonovna (2022). JAMAL KAMAL'S TRANSLATION OF SHAKESPEARE'S WORKS. *Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali*, 1 (12), 101-104.
12. S. Yusupova, & M. Odilova (2022). THE ROLE OF WILLIAM SHAKESPEARE IN WORLD LITERATURE. *Science and innovation*, 1 (B8), 1859-1862.